

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

## OLQISH ASOSIDA YUZAGA KELGAN ODDIY FOLKLORIZM

Laylo SHARIPOVA,

Buxoro davlat pedagogika instituti  
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,  
filologiya fanlari doktori

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292171>

**Annotatsiya.** Folklorga xos janrlardan biri olqish insonning har kungi nutqida tez-tez uchraydi. O‘ziga xos badiiylikka ega bu janr yozma adabiyot tarkibida uchrar ekan, oddiy folklorizmga aylanadi, ya’ni ijodkorning ma’lum maqsadini oydinlashtiradi. Olqish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm badiiy asarda muayyan poetik vazifani ado etadi. Mazkur maqolada shu haqda fikr boradi.

**Kalit so‘zlar:** olqish, oddiy folklorizm, she’r, tasnif, qarg‘ish, analitik folklorizm, she’riyat, shoir, poetik vazifa.

**Abstract.** This article discusses the materials about applause which is one of the genres of folklore, and is often used in everyday speech. Appearing in written literature, this genre that has a unique artistic quality becomes a simple folklorism, and it help to clarify the specific purpose of the writer. Simple folklorism, which arose on the basis of applause, fulfills a certain poetic function in a work.

**Keywords:** applause, simple folklorism, poem, classification, curse, analytical folklorism, poetry, poet, poetic function.

**Аннотация.** В статье рассматриваются материалы о приветствиях, которые являются одним из жанров фольклора и часто используются в повседневной речи. Появляясь в письменной литературе, этот жанр, обладающий уникальным художественным качеством, становится простым фольклоризмом, и он помогает прояснить конкретную цель писателя. Простой фольклоризм, возникший на основе приветствий, выполняет определенную поэтическую функцию в произведении.

**Ключевые слова:** приветствие, простой фольклоризм, стихотворение, классификация, проклятие, аналитический фольклоризм, поэзия, поэт, поэтическая функция.

Folklorizm nazariyasi ishlab chiqilganda maqol, matal, ibora yozma adbiyot tarkibida kelsa, oddiy folklorizm [Sarimsoqov B. 5:40], folklordagi ma’lum sujet bilan aniq ijodkor yaratgan sujet sintezlashsa (sintezlashgan folklorizm), folklor namunasidan ma’lum parcha yozma adabiyot tarkibida keltirilsa (analitik folklorizm), folklorga xos janr, obraz, motiv, ritm yozma adabiyotga ko‘chsa (stilizatsion folklorizm), murakkab folklorizm deb ta’rif keltiriladi [Sharipova L. 9:36; 88]. Olqish va qarg‘ish janri namunasi muallifi aniq badiiy asarlar tarkibida keltirilganda dastlab analitik folklorizm deb hisoblagan bo‘lsak, vaqt o‘tib adabiyotshunoslar asar tarkibidan topish osonligiga tayanib, olqish va qargi`sh asosida yuzaga kelgan folklorizmni oddiy folklorizm deb hisoblash va maqol, matal, ibora, olqish, qarg‘ish

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

janri namunasini yozma adabiyot tarkibida keltirib, ma’lum poetik ma’noni yuzaga chiqarish oddiy folklorizm tarzidagi ta’rifni o’rinli hisoblashdi [Sharipova L. 10: 28]. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’oti-t-turk” lug’atida “alqish” so’zi keltirilgan: “Olqish, maqtash, duo qilish, tabrik, birovning yaxshi xislatlarini eslash” [Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad Qoshg’ariy. 1:84]. “Alqadi”, ya’ni “duo qildi”; “olqishladi”, yani “maqtadi” fe’llari ot so’z turkumiga mansub “alqish” so’zidan hosil bo’lgan. Asrlar davomida olqish badiiylik kasb etib, folklor janri sifatida keng tarqalgan. Sekin-asta yozma adabiyot namunalari tarkibida keltirilgan. Bugun adabiyotshunoslik oddiy folklorizm sifatida tadqiq etishni boshladi.

O’tgan asrning 70-80-yillari o’zbek she’riyatida olqish va qarg’ish oddiy folklorizm sifatida juda keng tarqalgan. Ular faqat doston, she’riy ertak tarkibida emas, she’rlar tarkibida ham keltirilganligi kuzatiladi. Xalq olqishlari she’riyatda qo’llanar ekan, aynan qo’llangan yoki o’zlashtirilgan, ya’ni shaklida o’zgarishlar qilingan holda keltirilgan. Olqishlar asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlar: a) Vatanga; b) xalqqa; v) ota-onaga, farzandga, do’st-yorga, demak, aniq bir kishiga nisbatan aytilgan hamda g) ramziy olqishlarga bo’linadi. O’tgan asrning 70-80-yillari o’zbek she’riyatida Vatan va xalq alqangan olqishlar ko’p. Bunday olqishlar aksariyat hollarda «Omon bo’l», «Bor bo’l», «Gurkira», «Xazon ko’rma, inshoolloh» tarzida ifodalangan.

E.Vohidovning «Iftixor tuyg’usi» she’rida «Omon bo’l, onajonim, dil quvonchim, sururim»; A.Oripovning «Kenglik nuqtasi» she’rida «Bor bo’l, tafakkurga yor bo’lgan diyor», «O’zbekiston» she’rida «Zavol ko’rma hech qachon, o’lkam», «Salomnoma» she’rida «Gurkirasin, kuchga to’lgan yurt doimo»; H.Xudoyberdievaning «O’zbekiston» she’rida «O’zbekiston, boshginangdan quyosh abad nur to’kib, Dorilomon kunda yasha, bor ekansan toki Sen»; Muhammad Yusufning «O’zbekmomo» she’rida «Omon bo’l sen, omon bo’lsin dasht-u dalang», «G’ayrat» she’rida «Inshoolloh, Inshoolloh, Aslingga qaytgil, Vatan» tarzida xalq olqishlari asosidagi misralar qo’llanib, oddiy folklorizmni yuzaga keltirgan. Xususan, XX asrning 70-80-yillari o’zbek she’riyatida xalqni alqovchi she’rlar anchagina. A.Oripovning «O’zbekiston paxtasi» she’rida «Ne’mating o’zingga ham barqaror bo’lsin deyman», Muhammad Yusufning «Tilak» she’rida «Beshiklarga to’lib ketsin bir o’zbeklar», «Xalq bo’l, elim» she’rida «Bir bo’l endi, qadri baland qaddingni ker; «Xalq bo’l, elim, xalq bo’l, elim» tarzida xalq olqishlari keltirilgan. Zero, olqish janrining nomi «alqamoq» fe’lidan kelib chiqqan. Shunisi borki, bu olqishlar yozma she’riyat bag’rida yanada teranroq va kengroq mazmun kasb qilib,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

poetik qimmatini oshirilgan. Aytaylik, «Bir bo‘l» olqishini ota-ona o‘z oilasida farzandlariga, mahalla oqsoqoli mahalladoshlariga, ulug‘roq inson yoshlarga aytishi mumkin. Shoir esa uni o‘z xalqiga, qo‘yingki, O‘zbekistonda yashab turgan millati, irqi, dini va tilidan qat’iy nazar shu yurt fuqarosiga aylangan har bir yurtdoshiga aytmoqda. Bu birlikda til, hudud, qonun, orzular, demakki, butun kelajak birligi akslanmog‘i lozim. Ko‘rinadiki, shoir xalq olqishini g‘oyat chuqur ma'noda qo‘llagan, uning mazmun doirasini kengaytirgan. «Xalq bo‘l, elim» olqishi folklor mahsuli emas, bu olqish stilizatsiyasidir, ya'ni xalq olqishiga monand yaratilgan yangi olqishdir. Unda xalq – ulug‘ qudrat egasi, bunyodkor, Vatanning joni sifatida tasvirlanmoqda. El olomon emas, xalq bo‘lsin, deb alqamoqda shoir. Negaki, ulug‘ farzandlari ag‘yor tomonidan o‘ldirilganda o‘z jonini o‘ylab, sukut saqlagan el xalq emas, olomondir. O‘zbek xalqi ayrim davrlarda ahilligini yo‘qotgani uchun shoir shunday olqish aytgan. Davr she‘riyatida ota-onaga, farzandga aytilgan olqishlar shaklidagi oddiy folklorizmlar ham ko‘p uchraydi. Faqat unda ota-onalar (kattalar) alqangan olqishlardan ko‘ra farzandlar (yoshlar)ga aytilgan olqishlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qolaversa, davr she‘riyatida yoshlarning kattalarni alqab yaratgan she‘rlari alohida ajralib turadi. holbuki, aslida yoshi ulug‘larning yoshlarni alqashi o‘zbek uchun xos xususiyatdir. Jumladan, H.Xudoyberdievaning «Yil boshi istaklari» she‘rida «Piri badavlatlik, Otalar, Sizga, Xotirjam baxt Sizga, Onajonlarim»; «Oq olmalar pishganda» she‘rida «Sizga, otam, mo‘ysafidlik umrin tildim-ku men», E.Vohidovning «Ezma chollar» she‘rida «Bizni ayirmasin ezma chollardan» satrlari fikrimiz dalili bo‘la oladi.

Farzandga nisbatan aytilgan olqishlar rang-barangligi bilan ajralib turadi. A.Oripovning «Yaxmalak» she‘ridagi «Baxting butun bo‘lsin, qizginam...», E.Vohidovning «Otdoshlarimga» she‘ridagi «Omon bo‘lsin ofatdan bu bosh», «Ota tilagi» she‘ridagi

Kiprigiga zarra qo‘nmasa qayg‘u,  
Baxti komil bo‘lsa, tolei bekam,  
Ko‘rsa men ko‘rmagan shodliklarni u,  
Yetsa men yetmagan niyatlarga ham [Vohidov E. 7:18].

Yoki «Faqat odam qadrin bilar odam bo‘l», H.Xudoyberdievaning «Ulug‘bekni kuzatib» she‘ridagi «Men deb umring uzaysin, men deb omon bo‘l, omon» satrlarida xalq olqishlari qo‘llanib, oddiy folklorizm hosil qilingan.

Xalq olqishlari aynan biron uchun yaratilmaydi. «Bor bo‘l», «Omon bo‘l», «Sog‘ bo‘l», «Umring uzun bo‘lsin» kabi olqishlar turli vaziyatlarda turli yoshdagi istalgan

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

kishilarga ezgu niyat bilan aytiladi. Yozma she'riyatda esa bu olqishlardan analitik folklorizm hosil qilinadi ekan, u aniq bir kishiga, ma'lum adresatga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ma'lumki, xalq yo'lga chiqadiganlarga «Yo'ling bexatar bo'lsin», «Yo'ling oq bo'lsin» deydi. Bu olqishlar vositasida yo'lovchiga xavf-xatarsiz, qiyinchiliksiz safar tilanadi. «Yo'ling oq bo'lsin» olqishining genezisi xalqning oq rang bilan bog'liq qadimiy va an'anaviy e'tiqodiy qarashlariga borib taqaladi. Bunda oq rangning yorug'lik, xotirjamlik ramzini ifodalab kelishini eslash kifoya. Ushbu olqish she'rlarda turli vaziyatlarda qo'llaniladi:

Ey, sen, go'zal singlim, oshiq ukajon,  
Oq yo'l saodatli sitoralarga [Vohidov E. 7: 126].

E.Vohidovning «Vatan sog'inchi» she'ridagi «Do'stlarim, har qayda bo'ling salomat», Usmon Qo'chqorning «Endi ortiq g'amdan so'ylama» she'ridagi «Sen baxtiyor bo'lg'in iloyim», «Kutayotgan tosh» she'ridagi «Boshing toshdan bo'lsin dedilar», Muhammad Rahmonning «halovatning gulxanlari» she'ridagi «Salom aka bo'lsin doim salomat», «Xalq ohanglarida» she'rida «Sevar yorim, salomat bo'!» satrlarida insonga tani sihatlik, baxtiyorlik, tinchlik va xotirjamlik tilash haqidagi xalq olqishlaridan analitik folklorizm hosil qilingan. Og'zaki ijoddagidan farqli o'laroq olqishlar real ma'noda qo'llanishdan tashqari falsafiy ma'no kasb etadi yoki shoirona tuyg'ularni o'z bag'riga kengroq singdiradi. Ma'lumki, «Insof bo'lsin» olqishi bir kishiga ham, ko'pchilikka ham qaratib aytilishi mumkin. A.Oripovning «Uchinchi odam» she'rida undan katta bir falsafiy fikrni ochib berishda mahorat bilan foydalanilgani kuzatiladi. Shoir ikki odam orasida hamisha uchinchi odam borligini va uchinchi odam goh yaxshilik, goh yomonlik uchun vosita bo'lishini ta'kidlab, ana shu uchinchi odamga qarata «Senga insof bersin» deydi. Keyingi misralarda shunga bog'lab asosiy g'oya: faqat o'zbek emas, butun insoniyat tinch bo'lsagina, O'zbekiston gullashi anglatiladi. Chunki o'zbek xalqi bashariyatning bir bo'lagi, O'zbekiston esa kurrai zaminning bir qismidir. Xullas, 70-80-yillarda dunyoga, insonga olqish aytish udumga aylandi. Jumladan, A.Oripov «Tarbiya» she'rida:

Odam ahli, zavol ko'rma,  
Bo'lma odam zavoli [Oripov A. 4:333], –

deb yozadi. Shu kayfiyatdagi olqish shoirning «Niyat» she'rida «Insonga osoyish yor bo'lsin», Muhammad Yusufning «Maktub» she'rida «Dunyo omon bo'lsin» satrlari orqali ifodalangan. Bunday misollar talaygina.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Folklordan farqli o‘laroq she‘riyatimizda jonsiz narsalarni, ramziy tushunchalarni olqishlovchi satrlar uchraydi. Ularni shartli ravishda ramziy olqishlar deyish mumkin. Aslida bu olqishlar folklorda bor-u, yozma she‘riyatda kimga, nimaga qarata aytilayotganiga ko‘ra folklordagidan farqlanadi. Usmon Qo‘chqor «Dunyoni anglash» she‘rining yakunida olqish vositasida yuragida bug‘doy doniday e‘tirozi, isyoni qolgan odam mag‘lub sanalmaydi degan fikrni ifodalaydi:

Faqat yuragingda shu dona omon,

Mag‘zi to‘q shu bug‘doy salomat bo‘lsin [Usmon Qo‘chqor. 6:64].

Isyonga omonlik tilash H.Xudoyberdiyevaning «Shoir yashay bilmas» she‘ridagi «Ishqilib, uzunroq umr ko‘r, isyon» satrida ham mavjud. E.Vohidov she‘rlarida folklordagidan farqli o‘laroq, she‘rga olqish aytish holati uchraydi. Aslida she‘riyatni olqishlash, unga atab she‘rlar yaratish badiiy ijodda o‘ziga xos an‘ana tusini olgan. E.Vohidov bu an‘anani davom ettirarkan, she‘rga shunday olqish aytadi:

Yo‘llaringiz bo‘lsin charog‘on,

Xayr endi, sog‘ bo‘ling, omon! [Vohidov E. 7:86].

A.Oripov «Qo‘shiq» she‘rida «Bolalar baxtiga qo‘shiq sog‘aysin» deya qo‘shiqni olqishlaydi. E.Vohidov «Sirdaryo o‘lani» she‘rida ko‘hna Jayhunni olqishlab, «to‘lib-tosh», «serob bo‘l» deya ezgu istagini bayon etadi:

Oqib turgin, qurib qolma, onajon [Vohidov E. 7:126].

H.Xudoyberdiyevaning «Uzatilayotgan qiz qo‘shig‘i» she‘ridagi lirik qahramon «Ota uyim, sendan yuz burmasin baxt» deb ota uyini alqaydi. Demak, folklor olqishlari, asosan, insonga qarata aytiladi. Yozma adabiyotda esa olqishlar nafaqat insonga, balki egasiga qadrdon bo‘lib qolgan jonsiz narsalarga, tabiat hodisalariga ham qaratilaveradi. Buning natijasida jonlantirish (tashxis) san‘ati vujudga kelib, she‘rning badiiyati va ta‘sirchanligi ta‘minlanadi. Ko‘rinadiki, she‘riyatda jonsiz narsa-hodisalarga tinglovchi sifatida qarab, ularga olqish aytish, ezgu tilak izhor qilib murojaat etish jonlantirish san‘atini keltirib chiqaradi. Bunday olqishlar XX asrning 70-80-yillari she‘riyatida talaygina. Bu yillar she‘riyatida insonlarning ruh o‘lmasligi va boqiyiligiga ishonchni ifoda etuvchi, ruhga tinchlik, xotirjamlik tilovchi olqishlar talqini ham uchraydi:

Yotar Fayzullalar,

Yotar Ahmadlar,

Xudo rahmat qilgur, xudo rahmatlar [Muhammad Yusuf. 3:225].

Marhumlar ruhiga hurmatni ifoda etuvchi olqishlar mazkur yillar shoirlarining asarlarida o‘z davri voqealari bilan bog‘lab talqin etilganligi kuzatiladi. Aytaylik,

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

shoir Muhammad Yusuf milliy an’analarimizga zid holatda ruhi bezovta, notinch va behurmat qilingan Sharof Rashidov haqida yozarkan, bu voqeadan qattiq larzaga tushganligini lirik ifoda etadi. Bu holat shoirni o‘z she’rida marhumlarga aytiladigan «rozi bo‘ling» olqishini qo‘llashga undaydi:

Shohlarga hamisha xushomad zomin,  
Ko‘zin yog‘in yalab, sotarlar nomin.  
She‘rim ham tugadi, o‘zbekcha omin,  
Bizdan rozi bo‘ling, ruhi notinch zot [Muhammad Yusuf. 3:60].

XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyati o‘zlashtirgan xalq olqishlari yuzaga keltirgan analitik folklorizmlarni e’tiborda tutib, shunday xulosaga kelish mumkin: 1. Folklorga xos olqishlar, asosan, qirq yoshdan o‘tgan shoirlar ijodida uchraydi. 2. Mifologik olqishlar deyarli kam qo‘llangani holda real hayotiy olqishlar keng o‘zlashtirilgan. 3. Qo‘llangan olqishlar soni kam, ammo qo‘llanish maqsadi, o‘rni, bajargan vazifasi keng. 4. Ular, asosan, she’rning oxirida qo‘llanilgan. Ehtimol, bunda olqishlarning, odatda, biror tadbirni yoki ishni boshlashdan oldin yo keyin aytilishi inobatga olingan bo‘lishi mumkin. 5. Keltirilgan olqishlar asar mavzusini oydinlashtirishga, lirik xulosani chuqurlashtirishga xizmat qila olgan. 6. Natijada bunday she’rlar ezgulikni targ‘ib qiluvchi vositaga aylangan. 7. Yana xalq olqishlarining yashovchanligini va keng ommalashishini ta’minlashga yo‘l ochgan. Ba’zan shoirlar badiiy ijod imkoniyatlaridan foydalanib, olqishni qarg‘ishga xos uslubiy qolipda bayon etishi yoki aksincha, qarg‘ishni olqish usulida aytib, she’rning badiiyati va ta’sirchanligini oshirishga intilganligini kuzatish mumkin. Masalan:

Sovchilari eshigida zor bo‘lsin,

Nozimalar, Madinalar bor bo‘lsin [Muhammad Yusuf. 3:191]. «Zor bo‘l» iborasi aslida qarg‘ishga xos, ammo qizlar eshigida sovchilarning zor o‘tirishi – bu qarg‘ish emas, balki olqishdir. Xuddi shunday holat Zebo Mirzayevaning «Iloha, qo‘llaring..» [Mirzayeva Z. 2:26] deb boshlanuvchi she’rida ham yaqqol ko‘rinadi:

Duobad ayladim, tanim xor bo‘lsin,  
Ruhim – Xudo bo‘lsin,  
Xudo yor bo‘lsin.

Shoira «vujudim xor bo‘lsin» deb o‘zini qarg‘amoqda. Tasavvuf dunyosi vujudni xor qilish evaziga ruh Olloh diydoriga musharraf bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi, oliy ruhga qo‘shilishni orzu qiladi. Demak, lirik qahramon ham vujud xorligi evaziga (bu o‘rinda nafsni tiyish nazarda tutilmoqda) Olloh diydoriga musharraf bo‘lishni orzu qilmoqda, demakki, o‘zini alqamoqda. Ammo bu olqish

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

vujudga bitmas-tuganmas azob keltirishi mumkin. Mumtoz adabiyotimizda oshiq o‘zgani alqab yodlaydi. O‘zgani emas, o‘zini jazoga loyiq topadi, qarg‘ishni oshkora ifodalamaydi:

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga,

Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga [Bobur. 8:17].

Ayni damda lirik qahramon – oshiq ma’shuqaning jazolarini qabul qilishiga sabab, avvalo, azob dil ko‘zini ochuvchi, dil oynasini tozalovchi vosita deb bilganidadir. Qolaversa, aksariyat hollarda ma’shuqa – olloh obrazi, demak, uning uchun chekilgan azob asli rohatdir. Z.Mirzaevaning lirik qahramoni o‘zini duo qilar ekan, shu duoni yoriga ham ravo ko‘radi:

Yoring xudo bo‘lsin,

Xudo yor bo‘lsin! [Mirzayeva Z. 2:26]

Xalqimizda yaqin kishilari bilan xayrlashish chog‘ida «xudo yor bo‘lsin», deya bir-birini duo qilish udumi bor. Shoiri satrlarining mohiyatiga diqqat qilinsa, unda ezgu tilakdan ko‘ra yomon niyat bildirilayotgani ayonlashadi. «Xudo yor bo‘lsin» olqishi go‘yo she‘r talabi bilan inversiyaga uchragandek. Aslida esa bu ataylab qilinib, shu yo‘l bilan olqish qarg‘ishga aylantirilmoqda. Bu ifoda orqali shoiri oshiqqa «ollohdan o‘zga yoring bo‘lmasin», – deya yolg‘izlik azobini tilayotir. Shoiri so‘nggi banddagi qaytariqda «Sevgim xudo bo‘lsin», – deyish bilan muhabbati oshiq uchun yagona, qudratli bo‘lishini tilaydi. Bu olqishdir, ammo mohiyatida qarg‘ish yotgan olqishdir. Lirik qahramonning ishqi oshiq uchun yagona bo‘lib qolsa, oshiq qayta sevolmaydi. Ma’shuqa xiyonatkor oshiqqa qayrilib qaramoqchi emas. Demak, bunda duo qarg‘ishga aylanadi. Oxirgi band bilan birinchi banddagi quyidagi misra mantiqan bir-birini to‘ldirib, fikrni yanada kuchaytiradi:

Iloha, qo‘llaring ishqa zor bo‘lsin!

Shoiri duoday ko‘ringan olqish bag‘riga qarg‘ishlarni yashirishda davom etadi:

Osmon bo‘l, zavoling tuproq ko‘rmasin.

Shoiri zavoling tuproqni ko‘rmasin deyish bilan oshiqni qarg‘amoqda. Negaki, har qanday osmon bo‘lgan inson ham bir kuni zavol topishi aniq. Zavol topgan inson tuproq bag‘riga qo‘yiladi. Xalqda go‘r qabul qilmagan insonlar borligi haqida afsonalar mavjud. Lirik qahramon oshiqqa ana shu dahshatli qarg‘ishni ravo ko‘radi. Zero, yuqoridagi satrlar qarg‘ish bo‘lmasa, keyingi satrlar bunday tugamas edi:

Chinor bo‘l, shoxingga bir zog‘ qo‘nmasin,

Shamol bo‘l, kimsan deb birov so‘rmasin.

# “TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Chinor daraxtlar ichida uzoq umr ko‘rishi bilan mashhur, ammo mevasizligi bois beqadr. Lirik qahramon oshiqqa uzoq umr tilayapti, lekin biror zog‘ga-da kerak bo‘lmagan uqubatli umrni tilamoqda. Demak, satr to‘la-to‘kis qarg‘ish tusini olmoqda. Yuqorida qarg‘ishning olqishga, olqishning qarg‘ishga o‘tishi mumkinligini ko‘rdik. Bu hol she‘riyat imkoniyatlari orqali yuzaga kelgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Махмуд ибн Хусайн ибн Муҳаммад Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит-турк). 3 жилдлик. 1-жилд. – Т.: Мумтоз сўз, 2016. – Б.84.
2. Мирзаева З. Тун маликаси. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1990. – Б.25-26.
3. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Т.: “Шарқ” НМАК, 2004. – Б.225.
4. Орипов А. Йиллар армони. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.333.
5. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // ЎТА, 1980. – №4. –Б.40-41.
6. Усмон Кўчкор. Оғир карвон. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1991. – Б.64.
7. Воҳидов Э. Садоқатнома. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б.18.
8. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Т.: Фан, 1994. – Б.17.
9. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80 йиллари ўзбек шеърлятида фольклоризм. – Т.: Фан, 2011. – 152 б.
10. Шарипова Л. Шеърлят ва фольклор (XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърляти мисолида). Монография. – Т.: Наврўз, 2019. – 204 б.